

**KONFERENSIYALAR** COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XII RESPUBLIKA ILMIY-  
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-  
FANI: INSON UCHUN  
INNOVATSION G'OYA  
VA YECHIMLAR**

**IYUN, 2026**

**ISSN 3093-8791**

**ELEKTRON NASHR:**  
<https://konferensiyalar.com>



**Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.**  
XII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.  
2-jild, 12-son (26-iyun, 2026-yil).– 223 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda  
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**ISSN:** 3093-8791 (onlayn)

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2026-yil, 24-iyun

**Mas'ul muharrir:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**Annotatsiya**

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

**Barcha huquqlar himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

## TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA MAHSULOT ISHLAB CHIQRISHNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

**Asraqulov Farrux Rustamovich**

Namangan davlat universiteti

“Moliyaviy munosabatlar” kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada tadbirkorlik subyektlarida xalqaro standartlar asosida mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari o'rganilgan. Xalqaro standartlarning korxonalar faoliyati samaradorligi, mahsulot sifati va eksport salohiyatiga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekistonda xalqaro standartlarni joriy etishning mavjud holati baholanib, tadbirkorlik subyektlarida sifat menejmenti tizimlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** xalqaro standartlar, ISO 9001, sifat menejmenti, tadbirkorlik subyektlari, eksport salohiyati, mahsulot sifati, sertifikatlashtirish, raqobatbardoshlik, innovatsion rivojlanish, integratsiyalashgan boshqaruv tizimi.

## PROSPECTS FOR DEVELOPING PRODUCTION IN BUSINESS ENTITIES ON THE BASIS OF INTERNATIONAL STANDARDS

**Asraqulov Farrukh Rustamovich**

Namangan State University

Teacher of the Department of “Financial Relations”

**Annotation.** This article studies the theoretical and practical foundations of developing production in business entities on the basis of international standards. The impact of international standards on the efficiency of enterprises, product quality and export potential is analyzed. Also, the current state of implementation of international standards in Uzbekistan is assessed, and scientific and practical recommendations are developed for improving quality management systems in business entities.

**Keywords:** international standards, ISO 9001, quality management, business entities, export potential, product quality, certification, competitiveness, innovative development, integrated management system,

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i12/n11>

### **Kirish.**

Jahon iqtisodiyotida kechayotgan globallashtirish jarayonlari ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari oldiga yangi talablarni qo'yimoqda. Xususan, xalqaro bozorlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifati, xavfsizligi va raqobatbardoshligi xalqaro standartlar talablariga mos bo'lishi zarur. Shu bois xalqaro standartlar asosida mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirish bugungi kunda iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish hamda mahsulotlarning xalqaro bozorlarga chiqishini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamlislohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatda eksport salohiyatini oshirish, mahsulot va xizmatlarning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash maqsadida xalqaro standartlarni joriy etish bo'yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi, avvalo, mahsulot va xizmatlarning sifati hamda xalqaro

bozorlarda tan olinishi bilan belgilanadi"[1]. Mazkur fikr tadbirkorlik subyektlari faoliyatida xalqaro standartlarning ahamiyatini yaqqol namoyon etadi. Hozirgi kunda dunyo bo'yicha sifat menejmenti tizimlari orasida ISO 9001 standarti eng keng tarqalgan standartlardan biri hisoblanadi. Ushbu standart korxonalarda sifatni boshqarish tizimini tashkil etish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va iste'molchilar talablarini qondirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ISO 14001 ekologik boshqaruv tizimi va ISO 45001 mehnat xavfsizligi boshqaruvi standartlari ham korxonalar faoliyatining barqaror rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Xalqaro standartlarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligi ko'plab tadqiqotlarda isbotlangan. Jumladan, ISO tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, sifat menejmenti tizimlarini joriy qilgan korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligi o'rtacha 20–30 foizga, eksport hajmi esa 15–25 foizga oshgan[10]. Bu esa xalqaro standartlarning korxonalar faoliyatidagi strategik ahamiyatini ko'rsatadi. O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi yalpi ichki mahsulotning yarmidan ortig'ini tashkil etmoqda. Shunga qaramasdan, ayrim tadbirkorlik subyektlarida xalqaro standartlarni joriy etish darajasi hali ham yetarli emas. Bunga moliyaviy xarajatlarning yuqoriligi, malakali mutaxassislar yetishmasligi hamda sertifikatlashtirish jarayonlarining murakkabligi sabab bo'lmoqda. Shu munosabat bilan tadbirkorlik subyektlarida xalqaro standartlarni joriy etishning ilmiy asoslarini o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi tadbirkorlik subyektlarida xalqaro standartlar asosida mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirish istiqbollarini o'rganish.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi**

Tadbirkorlik subyektlarida xalqaro standartlar asosida mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirish masalalari xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotlarda sifat menejmenti, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish bilan bog'liq nazariy hamda amaliy masalalar yoritilgan. Sifat menejmenti nazariyasining asoschilaridan biri bo'lgan Jozef Juran sifatni korxonalar boshqaruvining strategik elementi sifatida talqin etadi. Uning fikricha, mahsulot sifatini ta'minlash jarayoni sifatni rejalashtirish, nazorat qilish va takomillashtirish kabi o'zaro bog'liq bosqichlardan iboratdir. Juran tomonidan ishlab chiqilgan "Sifat trilogiyasi" konsepsiyasi zamonaviy ISO 9001 standartining shakllanishiga muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilgan[4]. Tadqiqotchining ishlari asosan tizimli tahlil va boshqaruv metodlariga asoslangan bo'lib, korxonalarda sifatni uzluksiz yaxshilash mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Sifat menejmenti sohasida muhim ilmiy natijalarga erishgan yana bir olim Filip Krosbi hisoblanadi. U "Quality is Free" asarida sifatni oshirish qo'shimcha xarajat emas, balki korxonalar xarajatlari kamaytiruvchi omil ekanligini ilmiy asoslab bergan[6]. Krosbi "Nol nuqson" (Zero Defects) konsepsiyasini ilgari surib, mahsulotdagi nuqsonlarning oldini olish sifat menejmentining asosiy vazifasi ekanligini ta'kidlaydi. Mazkur yondashuv bugungi kunda ko'plab xalqaro standartlar amaliyotida keng qo'llanilmoqda. Amerikalik olim Uilyam Edvards Deming sifat menejmentining statistik usullarini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan. U korxonalar faoliyatida sifatni oshirish uchun 14 tamoyildan iborat boshqaruv tizimini taklif qilgan[5]. Demingning fikricha, sifatning yuqori darajasi ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, xarajatlarni kamaytiradi va korxonaning bozor mavqeini mustahkamlaydi.

Tadqiqotchining ishlari statistik nazorat usullariga asoslangan bo'lib, ular zamonaviy sifat menejmenti tizimlarida keng qo'llaniladi. Yapon olimi Kaoru Ishikava sifatni boshqarishda barcha xodimlarning ishtiroki muhim ekanligini ta'kidlagan. U ishlab chiqqan "Ishikava diagrammasi" yoki "sabab-oqibat diagrammasi" ishlab chiqarishdagi muammolarni aniqlash va ularning sabablarini tahlil qilishda samarali vosita sifatida tanilgan[7]. Olimning tadqiqotlari korxonalarda sifat madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslarini yaratishga xizmat qilgan. Armand Feygenbaum esa "Umumiy sifat menejmenti" (Total Quality Control) konsepsiyasini ishlab chiqqan. Unga ko'ra, sifatni ta'minlash faqat ishlab chiqarish bo'limining emas, balki korxonaning barcha tarkibiy qismlarining vazifasi hisoblanadi#[8]. Ushbu yondashuv keyinchalik Total Quality Management (TQM) tizimining shakllanishiga zamin yaratgan.

Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham xalqaro standartlarning iqtisodiy samaradorligini tasdiqlaydi. ISO ekspertlari korxonalarda standartlarni joriy etish natijasida mahsulot sifati yaxshilanishi, iste'molchilar qoniqishi ortishi va eksport hajmining ko'payishini qayd etadilar[10]. Mazkur tadqiqotlarda monitoring, statistik kuzatuv va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanilgan. Mahalliy iqtisodchi olimlardan A. Vahobov tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish masalalarini tadqiq qilgan. Olimning fikricha, xalqaro standartlar korxonalarining tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi va eksport salohiyatini oshiradi[11]. Uning ilmiy ishlari iqtisodiy-statistik tahlil metodlariga asoslangan. Sh. Shodmonov o'z tadqiqotlarida bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish omillarini o'rganib, mahsulot sifatining korxonalar raqobatbardoshligidagi o'rnini alohida ta'kidlaydi[12]. Tadqiqotchining xulosalariga ko'ra, sifat ko'rsatkichlarining yaxshilanishi korxonalarining moliyaviy natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. R.Xolbekovning standartlashtirish va sertifikatlashtirishga bag'ishlangan ilmiy ishlarida xalqaro standartlarni amaliyotga joriy etish mexanizmlari batafsil tahlil qilingan[13]. Muallif sertifikatlashtirish tizimining eksport faoliyatidagi ahamiyatini asoslab bergan hamda standartlashtirishning huquqiy asoslarini yoritgan. Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy olimlar asosan sifat menejmentining nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqqan bo'lsalar, mahalliy tadqiqotchilar ushbu tajribalarni milliy iqtisodiyot va tadbirkorlik faoliyatiga moslashtirish masalalariga e'tibor qaratganlar. Biroq mavjud tadqiqotlarda O'zbekiston sharoitida xalqaro standartlarni integratsiyalashgan boshqaruv tizimi asosida joriy etishning amaliy mexanizmlari yetarlicha o'rganilmagan. Mazkur tadqiqotda ilmiy bilishning tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, umumlashtirish va ekspert baholash metodlaridan foydalanildi. Qiyosiy tahlil yordamida xorijiy va mahalliy tajribalar o'rganildi. Iqtisodiy-statistik tahlil usuli orqali xalqaro standartlarni joriy etgan korxonalar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari baholandi. Tizimli yondashuv asosida xalqaro standartlarning tadbirkorlik subyektlari rivojlanishiga ta'siri kompleks ravishda tahlil qilindi. Shuningdek, tadqiqot davomida ISO 9001, ISO 14001 va ISO 45001 standartlarining integratsiyalashgan boshqaruv tizimi sifatidagi imkoniyatlari o'rganildi. Mazkur yondashuv korxonalarda sifat, ekologik xavfsizlik va mehnat muhofazasi masalalarini yagona boshqaruv tizimi doirasida samarali tashkil etish imkonini beradi.

### **Natijalar va muhokama.**

Tadqiqot davomida xalqaro standartlarni joriy etishning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'siri nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. O'rganilgan ilmiy manbalar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va mavjud statistik ma'lumotlar xalqaro standartlar asosida ishlab

chiqarishni tashkil etish korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Tahlillar natijasida aniqlanishicha, xalqaro standartlarni joriy etgan korxonalarda mahsulot sifati ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilanadi. Bunga ishlab chiqarish jarayonlarining standartlashtirilishi, sifat nazoratining kuchayishi hamda resurslardan oqilona foydalanish sabab bo'ladi. Xususan, ISO 9001 standartining joriy etilishi korxonalarda sifat menejmenti tizimini shakllantirib, ishlab chiqarishdagi nuqsonlar sonini kamaytiradi hamda iste'molchilar ehtiyojlarini aniqroq qondirish imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xalqaro standartlarni joriy etgan korxonalarda eksport faoliyati ham sezilarli darajada rivojlanadi. Chunki xalqaro bozorlarda mahsulot sifatiga qo'yiladigan talablar tobora ortib bormoqda. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlar xorijiy hamkorlar tomonidan ko'proq ishonch bilan qabul qilinadi. Shu jihatdan xalqaro standartlar korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. O'rganilgan adabiyotlarda Deming, Juran, Krosbi va Ishikava tomonidan taklif etilgan metodlarning asosiy maqsadi sifatni doimiy ravishda takomillashtirishga qaratilganligi kuzatildi. Ularning yondashuvlari o'zaro farq qilsa-da, umumiy maqsad mahsulot sifatini oshirish va korxonalar samaradorligini ta'minlashdan iboratdir. Deming statistik nazorat usullaridan foydalanishni tavsiya qilgan bo'lsa, Juran sifatni rejalashtirish va boshqarishga alohida e'tibor qaratadi. Krosbi esa nuqsonlarning oldini olishga asoslangan boshqaruv modelini taklif etadi. Mahalliy olimlarning ilmiy ishlari ham xalqaro standartlarning iqtisodiy samaradorligini tasdiqlaydi. Xususan, A. Vahobov va Sh. Shodmonov tadqiqotlarida mahsulot sifati va korxonaning raqobatbardoshligi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligi ta'kidlangan. Ushbu xulosalar mazkur tadqiqot natijalari bilan hamohangdir. Tadqiqot davomida xalqaro standartlarni joriy etgan va joriy etmagan korxonalar faoliyatining shartli qiyosiy tahlili amalga oshirildi.

Tahlillar natijasida O'zbekistondagi tadbirkorlik subyektlarida xalqaro standartlarni joriy etishga to'sqinlik qilayotgan asosiy muammolar ham aniqlandi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Xalqaro sertifikatlashtirish xarajatlarining yuqoriligi;
2. Malakali mutaxassislar yetishmasligi;
3. Standartlashtirish bo'yicha amaliy bilimlarning kamligi;
4. Kichik korxonalarining moliyaviy imkoniyatlari cheklanganligi;
5. Zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanish darajasining pastligi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarur. Xususan, sertifikatlashtirish xarajatlarining bir qismini subsidiya qilish, xalqaro ekspertlarni jalb etish va korxonalar xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha maxsus dasturlarni kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Tadqiqotning muhim natijalaridan biri sifatida tadbirkorlik subyektlarida xalqaro standartlarni joriy etishning integratsiyalashgan modeli ishlab chiqildi. Mazkur model uch asosiy tarkibiy qismdan iborat:

- 1) Sifat menejmenti tizimi (ISO 9001);
- 2) Ekologik boshqaruv tizimi (ISO 14001);
- 3) Mehnat xavfsizligi boshqaruvi tizimi (ISO 45001).

Ushbu tizimlarning yagona boshqaruv mexanizmi asosida faoliyat yuritishi korxonalarda boshqaruv xarajatlarini kamaytiradi hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan konseptual modelga ko'ra, xalqaro standartlarni joriy etish jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi lozim:

- 1) Korxonaning mavjud holatini diagnostika qilish;
- 2) Standart talablariga muvofiqlik darajasini baholash;
- 3) Xodimlarni o'qitish va malakasini oshirish;
- 4) Hujjatlashtirish tizimini takomillashtirish;
- 5) Ichki audit o'tkazish;
- 6) Sertifikatlashtirish jarayonini amalga oshirish;
- 7) Doimiy monitoring va takomillashtirish.

Mazkur yondashuv korxonalarda sifat menejmenti tizimining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Olib borilgan tahlillar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, xalqaro standartlarni joriy etish nafaqat mahsulot sifatini oshiradi, balki korxonalarining investitsion jozibadorligini ham kuchaytiradi. Chunki xalqaro standartlarga muvofiq faoliyat yuritayotgan korxonalar investorlar va biznes hamkorlar uchun ishonchli subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda O'zbekiston sharoitida tadbirkorlik subyektlarida ISO 9001, ISO 14001 va ISO 45001 standartlarini integratsiyalashgan boshqaruv tizimi asosida joriy etishning konseptual modeli taklif qilindi hamda uning eksport salohiyatiga ta'siri ilmiy jihatdan asoslab berildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, xalqaro standartlar asosida mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirish tadbirkorlik subyektlarining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlash, eksport hajmini oshirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

#### **Xulosa.**

Mazkur tadqiqotda tadbirkorlik subyektlarida xalqaro standartlar asosida mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari o'rganildi. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, xalqaro standartlarni joriy etish korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, eksport salohiyatini kengaytirish va xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili natijalari sifat menejmenti nazariyasining asoschilari bo'lgan Juran, Deming, Krosbi, Ishikava va Feygenbaum tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy yondashuvlar bugungi kunda ham xalqaro standartlar tizimining metodologik asosi bo'lib xizmat qilayotganligini ko'rsatdi. Mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari esa xalqaro tajribani O'zbekiston iqtisodiyoti sharoitlariga moslashtirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ISO 9001, ISO 14001 va ISO 45001 standartlarini integratsiyalashgan boshqaruv tizimi asosida joriy etish korxonalarining umumiy boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va korxonalarining investitsion jozibadorligini oshirish imkonini beradi. Shuningdek, tadqiqot davomida xalqaro standartlarni joriy etishga to'sqinlik qilayotgan omillar sifatida sertifikatlashtirish xarajatlarining yuqoriligi, malakali mutaxassislar yetishmasligi hamda korxonalarda standartlashtirish bo'yicha bilim va ko'nikmalarning yetarli emasligi aniqlandi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, malaka oshirish dasturlarini kengaytirish va xalqaro standartlarni joriy etish xarajatlarini qisman moliyalashtirish tavsiya etiladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi O'zbekiston sharoitida tadbirkorlik subyektlarida xalqaro standartlarni integratsiyalashgan boshqaruv tizimi asosida joriy etish modelining ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi. Taklif etilgan model ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, eksport faoliyatini rivojlantirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, tadbirkorlik subyektlarida xalqaro standartlar asosida mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirish iqtisodiy o'sishni ta'minlash, mahalliy mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi mavqegini mustahkamlash va mamlakat eksport salohiyatini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2024.
3. O'zbekiston Respublikasining "Standartlashtirish to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2022.
4. Juran J.M. Juran on Quality by Design. – New York: Free Press, 1992. – 538 p.
5. Deming W.E. Out of the Crisis. – Massachusetts: MIT Press, 1986. – 507 p.
6. Crosby P.B. Quality is Free. – New York: McGraw-Hill, 1979. – 309 p.
7. Ishikawa K. What is Total Quality Control? The Japanese Way. – New Jersey: Prentice Hall, 1985. – 215 p.
8. Feigenbaum A.V. Total Quality Control. – New York: McGraw-Hill, 1991. – 863 p.
9. Oakland J.S. Total Quality Management and Operational Excellence. – London: Routledge, 2014. – 544 p.
10. ISO Survey Report 2023. International Organization for Standardization. – Geneva, 2023. – 78 p.
11. Vahobov A., Xajibakiyev Sh., Ishonqulov N. Milliy iqtisodiyot. – Toshkent: Sharq, 2019. – 512 b.
12. Shodmonov Sh.Sh., G'ofurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2020. – 728 b.
13. Xolbekov R. Standartlashtirish va sertifikatlashtirish asoslari. – Toshkent: Fan, 2021. – 286 b.
14. Qosimova M.S. Korxonalarda sifat menejmenti tizimini joriy etish masalalari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022. – 194 b.
15. Rasulov A.A. Eksport faoliyatini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2023. – 236 b.

**YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN  
INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**  
**XII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**  
2026-yil, 26-iyun

**Mas'ul muharrir:** *F.T.Isanova*  
**Texnik muharrir:** *N.Bahodirova*  
**Diszayner:** *I.Abdihakimov*

**Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.**  
XII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.  
2-jild, 12-son (iyun, 2026-yil). – 223 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda  
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2026-yil, 24-iyun.

**Barcha huquqlar himoyalangan.**  
© Science problems team, 2026-yil.  
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.